



JADIDLARNING PEDAGOGIK G'OYALARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19650550>

Quruqlikdagi qo'shinlar instituti texnik ta'minot kafedrasida katta o'qituvchisi
To'rayev Botir Fatulloevich

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining ta'lim-tarbiya xususidagi qarashlari; Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning pedagogik g'oyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va germeneytik metodlar orqali jadidlar tomonidan ilgari surilgan tarbiyaviy, milliy ma'naviy qadriyatlar zamonaviy pedagogik qarashlar bilan solishtirilgan. Maqolada jadid pedagogikasining bugungi Yangi O'zbekiston ta'lim tizimi, bilan hamohang jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, jadid, integratsiya, germeneytika, qiyosiy–tarixiy, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract. This article analyzes the educational views of the Jadid movement, which emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, and the pedagogical ideas of thinkers such as Munavvar Qori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, and Abdulla Avloni. The study compares the educational and national spiritual values promoted by the Jadids with modern pedagogical views using comparative-typological and hermeneutic methods. The article reveals the aspects of Jadid pedagogy that are in harmony with the educational system of today's New Uzbekistan.

Keywords: Pedagogy, Jadid, integration, hermeneutics, comparative-historical, competence-based approach.

KIRISH

Taraqqiyotning hozirgi bosqichi raqamli transformatsiyalar davri bo'lib, bu barcha sohalar qatori ta'lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Yangi O'zbekiston poydevorini yaratish strategiyasi esa nafaqat texnologik, balki eng avvalo ma'naviy uyg'onishni taqozo etadi. Ushbu jarayonda yaqin o'tmishdagi shonli tariximiz bizga mayoq vazifasini

o'tashi shubhasizdir. XXasr boshidagi milliy uyg'onish harakati vakillari–jadid bobolarimizning buyuk merosi, xususan pedagogik islohotlari bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur”. [14-bet].

Milliy uyg'onish harakati vakillarining ta'lim–tarbiya haqidagi qarashlari oddiygina tarixiy hodisa emas,



balki dunyoviy taraqqiyotga yetaklovchi mukammal nazariya hisoblanadi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilarning qarashlarida ta'limga nafaqat bilim berish balki davlat va jamiyatni tanazzuldan qutqaruvchi kuch sifatida ta'rif beriladi. "Usuli jadid" maktablari orqali joriy etilgan o'qitish tizimi esa, bugungi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi bilan hamohangdir. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, jadidlar merosini zamonaviy pedagogika bilan uyg'un jihatlarini o'rganish, xususan zamonaviy pedagogik, texnologiyalar, STEAM ta'limi va tanqidiy fikrlash metodikasi bilan bog'lab o'rganish kabi masalalarni tahlil qilishdan iborat. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ta'lim mazmunini milliyashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda jadidlar tajribasi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamaot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" deya aytgan o'lmas g'oyasi bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimining asosi sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu maqolada ma'rifatparvar bobolarimizning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, metodikasi, darsliklari va til o'rganish haqidagi nazariyalari tahlil qilindi. Jadidchilik harakati tarixiy va adabiy yo'nalishlarda keng tadqiqotlar manbasi sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning pedagogik nazariyalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qilingan tadqiqotlar

yetarlicha emas. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat kabi mutafakkirlarning darsliklari, axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari ona tilini sevish, shu bilan birga chet tillarini o'rganish xususidagi qarashlari bugungi kun ta'lim dasturi uchun ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan hurfikrlilik, ilmning hayotimizdagi amaliy ahamiyati kabi g'oyalari bugungi o'qitish tizimida mantiqiy va kritik fikrlashni o'stirishning asosi bo'lib xizmat qila oladimi, degan savolning javobini asoslashni tadqiqot o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu maqolada jadid pedagogikasining strukturaviy elementlari – ona tili ta'limi, dunyoviy fanlar integratsiyasi va milliy axloq tamoyillari zamonaviy pedagogik doirada tahlil qilinadi. Maqolaning vazifalari sifatida esa, jadidlar yaratgan darsliklarni tahlil qilish, ulardagi zamonaviy pedagogika bilan uyg'un jihatlarini topish va ushbu tajribadan zamonaviy dars jarayonlarida, qanday foydalanish mumkinligini ilmiy asoslash qilib belgilandi.

Adabiyotlar va metodlar tahlili.

Turkiston ma'rifatparvarlik harakati va jadidlarning pedagogik qarashlari uzoq yillar davomida tarixchi va adabiyotshunos olimlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shundan kelib chiqib bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarni 3 bosqichda tahlil qilish mumkin:

1. Pedagogik va metodik tahlillar:

Jadidlarning didaktik qarashlari va jadid maktablari uchun yaratilgan darsliklar



tahlili S. Dolimov, U. Dolimov va Q. Yo'ldoshev kabi tadqiqotchilarning ishlarida o'z aksini topgan. U. Dolimov "Turkistonda jadid maktablari" asarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar tomonidan yaratilgan "Adibi avval", "Adibi soniy", Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarning strukturaviy va metodik xususiyatlarini batafsil yoritib bergan. Bu tadqiqotlar jadid pedagogikasini tizimli tahlil qiladi.

2 Tarixiy-biografik tadqiqotlar: Begali Qosimov, Naim Karimov kabi olimlar tomonidan jadidchilik harakati namoyondalarining hayoti tizimli ravishda Ularning ishlarida jadid maktablarining yuzaga kelishi milliy uyg'onishning birinchi bosqichi sifatida baholanadi. Xususan, B. Qosimov jadidchilik harakatini keng ko'lamda butun omillari, g'oyalari, geografik ko'lamigacha tadqiq qilgan hamda bu yo'nalishda juda boy meros qoldirgan.

3. Zamonaviy yondashuvlar: Bugungi kunda jadidlar merosini zamonaviy ta'lim tizimi bilan bog'lovchi tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, jadidlar darsliklaridagi interaktiv usullar masalalari, shuningdek hozirgi o'quv dasturilaridagi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish tamoyillari bilan qiyosiy o'rganish hamon maxsus tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Germenevtik tahlil. Jadid mutafakkirlari qalamiga mansub

pedagogik asarlar, shuningdek darsliklar tahlil va talqin qilindi. Bobolarimiz ilgari surgan milliy tarbiya mezonlarining Milliy dasturga muvofiqlik darajasi aniqlandi.

2. Qiyosiy-tarixiy tahlil: Ushbu metod orqali XX asr boshidagi "Usuli jadid" maktablarining ta'lim mazmuni hamda bugungi kunda maktablarda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik modellar o'zaro qiyoslandi. Bunda asosiy e'tibor darsliklardagi materiallarning o'quvchi yoshiga mosligi va bilim berishning soddadan murakkabga tamoyili asosida o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda qadriyatlar tizimi orqali o'rganish tamoyilidan ham unumli foydalanildi. Jadidlar ilgari surgan milliy taraqqiyot g'oyasi ta'lim tizimining mazmuniy asosi bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish tamoyili bilan bog'liq holda o'rganildi. Jadidlarning dunyoviy ta'limga o'tish jarayoni ilmiy tahlil qilindi.

Natija va muhokama. Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlarini zamonaviy ta'lim tizimi bilan bilan germenevtik tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy natijalar qo'lga kiritildi: "Adabiyotshunoslikda germenevtika badiiy matnlarni turli interpretatsiyasi orqali badiiy tafakkur qirralarini ochish va umuman badiiy asar matnini, binobarin, matnda aks etgan inson ichki dunyosi, uning qalb manzaralarini, jamiyatdan farqli o'laroq o'ziga xos dunyosini turli shakllarda anglab etish usuli hisoblanadi". [2, 25-bet] Jadid ta'lim tizimini **germenevtik tahlil** metodi orqali o'rganish — bu shunchaki tarixiy



faktlarni ketma-ket sanash emas, balki o'sha davr matnlari, darsliklari va islohotlari ortida yashiringan, ma'no va maqsadlarni qayta kashf etish demakdir. Bu tamoyil bizga jadidlar merosiga ichkaridan o'sha davr ruhi bilan qarash imkonini beradi. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibus-soniy" asarida qo'llangan tushunchalar chuqur ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. "Inson uchun maktab ikkinchi beshukdur. Birinchi beshukda tanavujudimiz tarbiya topsa, ikkinchi beshuk bo'lg'on maktabda aql va fikrimiz tarbiya topadur"[3, 25-bet]. Asarning "Maktab" bo'limidan olingan ushbu jumlar orqali muallif maktabning xavfsiz, iliq va shaxs ruhiyati tarbiya topadigan makon ekanligini beshik so'zi orqali ta'riflaydi. Maktabni oilaga mengzab, o'quvchi-oilata'lim tushunchalari o'zaro bir-biriga bog'liq ekanligini ifodalaydi. Muallif bu asarda millat tushunchasiga alohida urg'u beradi. Millat faqatgina etnik guruh emas, balki, bir maqsad va ma'rifat atrofida birlashishi lozim bo'lgan uyg'oq jamiyat bo'lishi lozimligini qayd etadi. Tarbiyali bola portretini chizarkan, uning eng muhim xususiyati sifatida, tarbiyali bola "Millat degan so'zni jonidan ortiq suyar" deya ta'rif beradi. Bu yerda vatanparvarlik, millatparvarlik shunchaki hissiyot emas, balki shaxsni shaxs sifatida kamol topdiradigan axloqiy mezon ekanligi ta'kidlanadi. Mutafakkirning pedagogik qarashlarida millat tushunchasi-taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Mohir pedagog Munavvarqori

Abdurashidxonov bolalar maktabning ichki tartib-qoidalarini bilishi, tanaffus va dars pytida o'zini qanday tutmog'i lozimligi odob-axloq qoidalari haqida batafsil to'xtalib, bolaga qo'pol munosabatda bo'lishni qa'iyman man qiladi.

Tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" konsepsiyasi tahlil qilinib, Bugungi kun bilan qiyoslaganda, jadidlar o'z davridayoq shaxs rivoji strategiyasini ishlab chiqqanligi ayon bo'ladi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, inson nafaqat o'z tilini balki chet tillarini ham mukammal bilmog'i lozim. Shundagina u dunyo eshiklari ochilib, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi mumkin. Bu esa hozirgi kunda davlatimizda chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarga mazmunan to'liq mos keladi. Usuli jadid maktablarida o'z davridayoq fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor qaratilgan hamda darsliklar ham shunga muvofiq ravishda tuzilgan. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari ham jadidchilik tarixida oltin asar hisoblanadi. Ushbu asarni kengroq pedagogik tahlil qilganda, uning shunchaki axloqiy nasihatlar to'plami emas, balki shaxsni shakllantirishning yaxlit pedagogik tizimi ekanligi namoyon bo'ladi. Avloniy tarbiyani shaxsiy doiradan chiqarib, ijtimoiy-milliy miqyosga ko'taradi. Uning nazdida, millatning kelajagi nafaqat iqtisodiyotga, balki tarbiya tizimiga ham bog'liq. Bu — pedagogikada ijtimoiy determinizm tamoyilining eng yuqori



ifodasidir. Avloniy bolani taklif etadi. U tarbiyani bir-biri bilan shakllantirishda tizimli yondashuvni uzviy bog‘liq to‘rt qismga bo‘ladi



Tarbiyaning to‘rt bosqichli modeli sifatida e‘tirof etiladigan bu nazariya asosiga ko‘ra, shaxsda bu bosqichlar bir-birini to‘ldirsagina u mukammallikka erishishi mumkin.

Avloniy fikr tarbiyasini shakllantirish muallimning eng asosiy vazifasi ekanligini alohida ta‘kidlaydi: “Fikr tarbiyasi muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklatilgan muqaddas bir vazifadir” [1, 12-bet] Muallifning ushbu fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyati yo‘qotmagan. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim berishi, balki o‘quvchida mustaqil, mantiqiy fikrlash konikmalarini shakllantirishi lozim.

Muallif insonning axloqi haqida fikr yuritarkan, u tug‘ma emas, balki ijtimoiy muhit va tarbiya mahsuli ekanligini ta‘kidlaydi: “Inson tug‘ilganda beozor bir hayvon kabi tug‘iladi, keyinchalik tarbiya uni inson darajasiga ko‘taradi” [1.6-bet] Bu yerda mutafakkir tarbiya borasida oila-maktab-jamiyat hamkorlikda

mas‘uliyat bilan yondashmog‘i lozimligini qayd etadi. Pedagogik jihatdan insonshunoslik darsligi hisoblangan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘quvchiga faqat bilim berishni emas, balki uni ma‘naviy butun, jismoniy sog‘lom va ijtimoiy faol shaxs — komil inson qilib tarbiyalashni o‘rgatuvchi mukammal asardir.

Tadqiqot doirasida tahlil qilingan jadid ma‘rifatparvarlarining pedagogik merosi bugungi kunda ta‘lim islohotlari uchun nafaqat tarixiy asos, balki fundamental metodik platforma ekanligini ko‘rsatmoqda. Olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda muhokama qilindi: 1. Tarbiyaning strategik ahamiyati Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridagi Avloniy taklif etgan to‘rt bosqichli tarbiya (badan, fikr, axloq, nafs) tizimi shaxsni komil inson darajasiga ko‘tarishning eng maqbul strategiyasidir. Ayniqsa, Avloniy tomonidan fikrni tarbiyalash muallim zimmasidagi



muqaddas vazifa sifatida belgilanishi (12-bet), bugungi pedagoglarning nafaqat bilim beruvchi, balki kognitiv rivojlantiruvchi sifatidagi rolini asoslaydi.

2. Farzand tarbiyasida oila va jamiyat mas'uliyati. Abdurauf Fitratning "Oila" asari tahlili shuni isbotlaydiki, ma'rifatparvar bobolarimiz oilani davlatning kichik namunasi va tarbiya o'chog'i sifatida ko'rganlar. Fitratning onalar ma'rifatiga bergan yuksak bahosi, "o'qimishli ona — o'qimishli millat" g'oyasi bugungi kunda xotin-qizlar ta'limiga berilayotgan e'tiborning tarixiy ildizi ekanligini alohida qayd etmog'imiz lozim Shu bilan birga, Fitrat bu asarida bolaning ruhiyati ota-ona va farzand ruhiyatlarining nisbati, o'zaro bog'liqlik masalalariga ham e'tibor berib ruhshunos-pedagog sifatida mulohaza yuritadi. Muallifning "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu-tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir", degan mulohazasi hozirgi kun uchun ham o'ta dolzarbdir. Shu o'rinda qayd etish lozimki, jadidlar tarbiyani bir butun tizim deb bilishgan. Munavvar qori maktabni "ikkinchi beshik" deb atasa, Fitrat oilani "davlatning namunasi" deb

biladi. Ushbu ikki qarash bugungi kunda dolzarb bo'lgan "Maktab-Oila-Mahalla" hamkorlik modelining bir ko'rinishidir.

XULOSA

Jadidlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari shunchaki tarixiy meros emas, balki bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimidagi kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning milliy poydevoridir. Abdulla Avloniyning tarbiya xususidagi fikr-mulohazalari shaxsni intellektual va axloqiy jihatdan shakllantirishda bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan Munavvar qori Abdurashidxonovning "Adibus-soniy" darsligi orqali taqdim etilgan fanlararo bog'liqlik g'oyalari zamonaviy STEAM va PISA baholash tizimi talablari bilan hamohangdir. Jadidlar o'z davrida ta'limni hayotiy ehtiyojlar bilan bog'lash xususida ham fikr-mulohazalar bildirishgan Abdurauf Fitratning "Oila" va "Najot yo'li" asarlarida milliy yuksalishning poydevori oila hamda ma'rifatli onalar ekanligini qayd etadi. Bu g'oya bugungi kunda davlat darajasidagi strategik yo'nalish g'oyasi bilan mantiqan bog'liqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”Toshkent//2004
2. M.Tojiboyev. “Adabiy germenevtika va badiiy til poetikasi” //Toshkent, 2022
3. B.Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti// Toshkent, 2004
4. F.O.Mirzayeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi//Toshkent, 2023
5. Abdurauf Fitrat.Oila//Toshkent, 2001
6. R.A.Mavlonova. Umumiy peagogika//Toshkent, 2018
- 7 M.Abdurashidxonov.Adibus soniy//Toshkent. 2005
8. Ziyouz.com kutubxonasi manbalari